

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

6

2023



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rincbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 424 sahifa, 30-iyun, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rincbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rincbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rincbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rincbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YomMMIB birinchi prorektori

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rincbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-soni qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Sanoat korxonalarida energiyadan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari	6
Buzrukxonov Sardorxon Sarvarxon o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Klasterlarni rivojlantirishda fermer xo'jaliklarining strategik boshqaruvi	11
Karimova Nilufar , tayanch doktarant	
Application of Information and Communication Technology to Promote Economic Development of Tourism Services in Uzbekistan	16
Peng Xinge , PhD Researcher	
O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanishning asosiy yo'nalishlari.....	21
Xotamov Ibodulla Sadullayevich , i.f.n., professor, Najmiddinov Yakhyo Fazliddin o'g'li , kafedra assistenti	
Suv ta'minot korxonalarida biznes jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobi tizimida hisob yuritishning xususiyatlari.....	28
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich , PhD, katta o'qituvchi	
O'zbekiston ichki oziq-ovqat tovarlari bozorini to'ldirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	31
Azlarova Munira Muhammad Amin qizi , tadqiqotchi	
Assessing the Implementation of Sustainable Practices in Higher Education Institutions to Drive the Transition towards a Green Economy: A Management Perspective	40
Kuzikulova Dilfuza	
Qualitative functional development in industrial production.....	49
Ziyayeva Mukhtasar Mansurdjanovna , TSUE, DSc, assistant professor	
Temir yo'l transportini mahalliylashtirishni moliyalashtirish mexanizmning hozirgi holati.....	54
Xamrayev Djamshid Panjiyevich , mustaqil tadqiqotchi	
Enhancing Education Management for Green Development in Engineering Programs: Strategies, Challenges, and Outcomes.....	61
Eshbayev Oybek , Department of English Language	
Exploring the Role of Effective Management Practices in Achieving a Sustainable Green Economy.....	68
Rozikov Ravshan , Department of English Language	
Enhancing Vocational Competence of Future Economists through English Language Lessons in the Context of the Green Economy.....	76
Kurbanova Nigina , Department of English Language	
Empirical test of regional economic innovation and development along the Belt and Road	85
Kalonov Mukhiddin Bahridinovich , professor	
Shao Junling , PhD student, researcher	
Analysis of the Impact of Cross border Investment and International Economic Integration.....	90
Zhao shenghan	
Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda bank moliya texnologiyalarining ahamiyati.....	96
Abduraximova Dilora Karimovna , PhD	
Rivojlangan mamlakatlarda bilimlar iqtisodiyoti konsepsiyasidan samarali foydalanish yo'nalishlari.....	101
Xasanxonova Nodira Isametdinovna , PhD	
Biznes inkubator orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini shakllantirishda "yashil logistika" tamoyillaridan foydalanish.....	107
Narzullayev Shodiyor Eshpulatovich , kafedra assistent	
Innovatsion faoliyatning asosi – intelektual salohiyat	112
Kaxorova Anora Nusratovna , kafedra assistenti	
Ijro hokimiyyati organlari faoliyatini baholash mezonlari tushunchasi va turlari	118
Qahramon Usmanovich Umidullayev , yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Temir yo'l transportida mahalliylashtirishni moliyalashtirishning huquqiy asoslari.....	124
Xamrayev Djamshid Panjiyevich , mustaqil tadqiqotchisi	
Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot: tayyorlash va avtomatlashtirish	129
Tulayev Mirzakul Salamovich , dotsent	
O'zbekistonda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishning samarali yo'llari	133
Sh. B. Babayev , dotsent; M. R. Qulmetov , dotsent	
Sug'urta kompaniyalari to'lov qobiliyatini kengaytirish yo'nalishlari	138
G'aniyev Shahriiddin Vohidovich , professor, i. f. d. (DsC), Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich , i. f. f. d. (PhD)	



Повышении роли цифровой трансформации банков в современном этапе развития экономики	144
Жиянова Наргиза Эсанбоена , к.э.н., проф., Азимжонова Малика Шавкат қизи , специалист первой категории	
To'qimachilik korxonalarida tejamkor ishlab chiqarishni tashkil etishda mehnat resurslari va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligi	150
Yaxyayeva Inobat Karimovna , dotsent, PhD	
Liquidity and recent changes of government securities market in the United States, the United Kingdom and Japan.....	154
Kholikov Khamidulla Vaydulla ugli	
"История экономических учений" как основная дисциплина в подготовке конкурентоспособных кадров экономистов	160
Хакимов Назар Хакимович , доктор философских наук, профессор	
The importance of strategic management and strategic leadership	166
Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li	
Exploring the Role of Higher Education in Fostering Green Economy Transition: A Systematic Analysis of Curriculum Integration and Skill Development.....	170
Xasanova Zarina , Department of English Language	
Inson kapitalini joriy etish tizimi va xodimlar daromadi o'rtasidagi o'zaro ta'sir tahlili.....	178
M. O. Hamroqulov , katta o'qituvchi	
Yetuk mutaxassis tayyorlash – kelajak uchun sarmoya.....	185
Farhod Bagibekovich Xalimbetov	
Analysis of new established and liquidated enterprises as a basis for jobs (On the example of Samarkand region)	188
Saidov Nurali Rakhimovich	
Basing and forecasting the priorities of introducing innovative medical services in Khorezm region.	193
S. M. Rakhimova	
Оптимизации операционной стратегии и повышение экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров	197
Джурабаев Отабек Джурбаевич , доцент	
Soliq to'g'risidagi qonunlarni buzganlik uchun yuridik javobgarlikka tortishning huquqiy asoslari....	204
Hakimov Feruz Xurshid o'g'li , talaba	
Hayot sug'urtasining rivojlanishi va uning ijtimoiy hayotdagি o'rni	207
Baratova Dinora Alisherovna , katta o'qituvchisi	
Edge Computing texnologiyalari	213
Qulmatova S. , PhD, katta o'qituvchi; Karimov Botir , katta o'qituvchi	
Aksiyadorlik kapitalida davlat ulushini qisqartirish va xususiylashtirish holati	218
Mamatov Bahromjon Shavkatovich , PhD, dotsent	
Xususiy maktablarning ijobiy imijini shakllantirishning nazariy jihatlari.....	223
Odilova Sitora Sayfitdin qizi , katta o'qituvchi	
Tomorqa xo'jaliklarida oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hajmining prognoz ko'rsatkichlari	228
Saydullayeva Fotima Jozilovna , assistant	
O'zbekiston sug'urta bozori rivojlanishining o'ziga xos xususiyati.....	235
Xasanov Xayrulla Nasrullahovich	
O'zbekiston yoshlarida volontorlik faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy mexanizmlari: jahon va mahalliy tajriba	241
Qudratov Anvarmirzo Murodillayevich , siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Культурологический аспект преподавания русскоязычной литературы Казахстана в ВУЗе	247
Оспан Айзада Бейсенқызы , докторант 2 курса	
Tijorat banklarida kreditlash riskini boshqarish holati tahlili.....	251
Mirzoyev Feruz Mamurjonovich , mustaqil izlanuvchi	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiyalashning zamonaviy holati va tendensiyalari	259
Abdualim Abdujabbor o'g'li Abdurazzoqov , mustaqil tadqiqotchi	
Significance and prospects of using economic-mathematical models in analysis of our country's economic growth	267
Rasulov Jamshid Shokir o'g'li	
Bank daromadlilik ko'rsatkichlariga makroiqtisodiy omillar ta'siri.....	274
Madraimov Xabibulla Madaminovich , assistant o'qituvchi	



Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning ilmiy konsepsiyalari	282
Mamatov Mamajan Axmadjonovich , i.f.n., dotsent	
Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash	288
Ergashova Nargiza Boboxonovna , talaba	
Budget-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishning nazariy yondashuvlari	296
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Innovatsion-brokerlik faoliyatini rivojlantirishda moliyaviy injiniringni ahamiyatini oshirish istiqbollari.....	301
Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich , dotsent	
O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishda ta'lim xizmatlari bozorining ahamiyati	306
Babadjanova Malika Ruzimovna , assistent o'qituvchi	
O'zbekiston sug'urtalovchilarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda qayta sug'urtaning roli	312
Kamilov Baxramjon Umardjonovich	
Shaxs ma'nnaviy-axloqiy tarbiyasi hamisha muhim.....	317
Bekdavlat Aliyev , professor, falsafa fanlari doktori	
Jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortishning zamonaviy tendensiyalari	321
O. T. Nurmatov , PhD	
Milliy mahsulotning mazmuni, tarkibiy qismlari va harakat shakllarini tadqiq qilishning nazariy-uslubiy asoslari.....	327
Abdullayev Suyun Artiqovich , O'zbekiston jahon tillari universiteti prorektori	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari.....	335
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich , mustaqil izlanuvchi	
Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatda ichki nazorat va auditning xususiyatlari.....	346
Saidaxmedova Aida Mirzayevna , katta o'qituvchi	
Yangi O'zbekistonda yog'-moy korxonalari personalini boshqarishni takomillashtirish.....	352
D. A. Azlarova , PhD	
The Intersection of Sustainability and Economic Development:	
Balancing Environment and Business Needs	360
Kholikova Rukhsora Sanjarovna , PhD, Izzatulloev Bakhodir Ubaydullo ugli , student	
Davlat-xususiy sheriklikni tashkil etishning huquqiy-institutsional mexanizmlari	364
Zuhra Abdikarimova , tayanch doktorant	
Zamonaviy portfel nazariyasi asosida samarali portfeli shakllantirish.....	370
Sindarov Fazliddin Qahramonovich , kafedra assistenti	
Iste'molchilarning qandolat mahsulotlariga bo'lgan talablarini raqamli platformalar orqali tadqiq qilish yo'llari	376
To'ychiyeva Vasila Faxriddin qizi , assistent	
Investitsiya muhiti va faoliyati natijalarini baholash uslublari.....	381
B. K. Tuxliyev , professor	
Sanoat korxonalarida resurslar salohiyatini tizimli tahlil qilish – korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash omili sifatida.....	386
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi , PhD	
Mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi tahlili (Xorazm viloyati misolida).....	391
Aminboy Sa'dullayev , i.f.n., dotsent, Dilshod Vaisov , magistr, Farhod Egamberganov , magistr	
Xizmatlar ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish amaliyoti va uni takomillashtirish.....	397
Pardayev Jamshid Muzaffarovich , tadqiqotchi	
Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar: yutuqlar, kamchiliklar va yechimlari.....	403
Muxtidinova Kamola Alisherovna , PhD	
Directions of attracting foreign capital and specific characteristics of the eurobond transaction.....	407
Gafurov Olimjon , teacher, Kholmuminov Humoyun , teacher, Abrueva Sevinch , student,	
Формирование международных систем бухгалтерского учета в условиях глобализации экономики	411
Ф. Т. Абдувахидов , доцент, А. Ю. Нурмухаммедов , доцент	
Qishloqda turizmni tashkil etishning mamlakatimiz taraqqiyotiga ta'siri	417
Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna , dotsent	
Public debt, poverty and economic growth of Uzbekistan	420
Mirzamakhmudov Marufjan Mahamadsharif ugli	



AKSIYADORLIK KAPITALIDA DAVLAT ULUSHINI QISQARTIRISH VA XUSUSIYLASHTIRISH HOLATI

Mamatov Bahromjon Shavkatovich

PhD, O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
"Investitsiyalar va moliya bozori" kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: ushbu maqolada mahalliy va xorijiy olimlarning mavzuga doir ilmiy qarashlari, shuningdek, davlat mulkini xususiylashtirishning institutsional asoslari hamda tendentsiyalari tadqiq qilingan. Davlat mulkini xususiylashtirishga investorlarni jalg qilishning amaldagi mexanizmini bahoresh orqali mavjud muammolar tizimlashtirilgan holda, xususiy kapial jalg qilish orqali davlat aktivlarining samaradorligini oshirish yo'llari to'g'risida ilmiy xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: aksiya, aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyoti, kapital jalg qilish, davlat ishtirokidagi korxonalar, davlat aktivlarini xususiylashtirish, fond bozori.

Аннотация: В данной статье исследуются научные взгляды отечественных и зарубежных ученых на данную тему, а также институциональные основы и тенденции приватизации государственного имущества. Путем оценки действующего механизма привлечения инвесторов к приватизации государственного имущества систематизированы существующие проблемы и представлены научные выводы о путях повышения эффективности государственных активов за счет привлечения частного капитала.

Ключевые слова: акция, практика публичного размещения акций, привлечение капитала, государственные предприятия, приватизация государственного имущества, фондовый рынок.

Abstract: in this article, the scientific views of local and foreign scientists on the subject, as well as the institutional foundations and trends of privatization of state property are researched. By evaluating the current mechanism of attracting investors to the privatization of state property, the existing problems are systematized, and scientific conclusions are presented about ways to increase the efficiency of state assets by attracting private capital.

Key words: shares, initial public offerings, capital attracting, state enterprises, privatization of state property, stock market.

KIRISH

Xususiy sektorning mavjud bo'lishi bozor iqtisodiyotida moliyaviy rag'bat uchun raqobat shakllanishini ta'minlasa, davlat sektori ko'pchilik hollarda iqtisodiy maqsadlarga erishishni o'zining bosh maqsadi sifatida ko'rmaydi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, davlat sektori ishlab chiqarishni maksimal darajada oshirish va resurslarni samarali tarzda taqsimlash uchun yetarli darajadagi yuqori motivatsiya ega bo'lmaydi, bu esa davlatning ko'p xarajatli, kam daromadli korxonalarini boshqarishiga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaathomasida "Mening katta niyatim – yurtdoshlarimiz orasida yuz minglab mulkdorlar, aksiyadorlar paydo bo'lsin. Odamlarimiz o'z omonatlarini investitsiya qilib, yuqori daromadlarga ega bo'lsin. Shuning uchun topshiriq berdim: kelgusi yilda eng yirik 10 ta kompaniya va tijorat banklarimizning aksiyalari o'z aholimiz uchun ochiq va shaffof savdoga chiqariladi. Bu chinakam xalqchil IPO bo'lishiga ishonaman" [1], deya alohida qayd etgan edilar. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yil 24-mart kuni o'tkazilgan davlat mulkini xususiylashtirish ishlarining ijrosi va bu borada joriy yilgi rejalar muhokamasi yuzasidan yig'ilishda "40 ta yirik korxona va banklardagi davlat ulushi "xalqchil IPO" orqali sotiladi. Jumladan, ilk bor Navoiy va Olmaliq kombinatlari, Metallurgiya kombinati, "O'ztelekom", Milliy bank, Sanoatqurilishbank kabi yirik korxonalarining o'rtacha 2 foiz aksiyalari aholiga taklif etiladi. Bunda aholiga aksiyalarni to'g'ridan to'g'ri sotib olish imkoniyati yaratiladi. Aksiyalari sotilgan korxonalar besh yil davomida sof foydasining kamida 30 foizi dividend to'lashga yo'naltiradi" [1], deya ta'kidlandi.

Davlat mulkini xususiylashtirishdan maqsad bozor iqtisodiyoti mexanizmi ishlashini ta'minlash hisoblanadi. Bozorda xususiy sektor mavjud bo'lsagina, biz bunday bozorga nisbatan elastik bozor tushunchasini qo'llashimiz mumkin bo'ladi.



Xususiylashtirish iqtisodiyotning real sektori samaradorligini oshirishga va iqtisodiyot faoliyatining tubdan yangi tuzilmasini yaratishga yo'naltirilgan asosiy iqtisodiy islohotlardan biridir. Davlat mulkini xususiylashtirish, mulkiy munosabatlarni isloh qilish, davlatning iqtisodiyotdagi ishtiroti va ta'sirini kamaytirish iqtisodiyotdagi boshqa muhim muammolar qatorida ustuvor ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda xususiylashtirish nazariysi va amaliyotini o'rganishga bag'ishlangan ham mahalliy, ham G'arb olimlarining ilmiy ishlari nashr etildi. Bozor iqtisodiyotidagi davlatning institutsional yondashuvdag'i rolini o'rganishda J. Stiglitsning xizmatlari katta ahamiyatga ega bo'lib, unda "bozor kamchiliklari"ni aniqlagan iqtisodiyotning davlatdag'i tutish motivlari o'rganilgan^[2].

Xususiylashtirish to'g'ridan to'g'ri iqtisodiy maqsadlarning siyosiy maqsadlardan ustun bo'lishiga yo'naltiriladi, bu bozor iqtisodiyotini rivojlantirishga olib keladi. "Mamlakatda davlat mulki yildan yilga xususiylashtirilib borishi zarur, chunki hukumat yuritayotgan notug'ri siyosat va davlat idoralaridagi korrupsiyasi iqtisodiy o'sishda katta salbiy rol o'ynosti mumkin"^[3]. Xususiylashtirish orqali hukumatning iqtisodiyotdagi o'rni qisqaradi, shuning uchun hukumatning iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli kamroq bo'ladi.

Markaziy osiyo mamlakatlari orasida davlat korxonalari orqali xorijiy investitsiyalarni jaib qilish Tojikistonlik olim R. B. Berdiyev tomonidan o'rganilgan bo'lib, R. B. Berdiyev fond bozorlari rivojlanmaganligini davlat ulushi mavjud korxonalarga xorijiy investorlarni jaib qilishda asosiy to'sqinlik qiluvchi faktor sifatida ko'radi[4].

Mahalliy olimlarimizdan M. B. Xamidulin davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqa-ruvning zamonaviy standartlarini joriy qilishda yuzaga kelayotgan muammolar yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan^[5].

S. E. Elmirzayev tomonidan tijorat banklarida davlat ulushi va moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlari o'zarida ta'siri o'rganilgan bo'lib, respublikamizdag'i davlat ulushi mavjud tijorat banklari tomonidan IPO amaliyotlari orqali samaradorlikni oshirish yo'llari to'g'risida ilmiy xulosalar keltirilgan^[6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Davlat ulushini xususiylashtirish amaliyotini takomillashtirishga doir mazkur tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, taqposlash, induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon amaliyotida xususiylashtirishning ikki turini ajratib ko'rsatish odatiy holdir (1-jadval). Birinchi turi 70-yillarning ikkinchi yarmida boshlangan. U o'tgan asrda mavjud bozor va raqobatbardosh tuzilma doirasida amalga oshirila boshlandi. Ikkinchi turi esa Sobiq ittifoq tarqalgandan so'ng markazlashtirilgan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tishda boshlangan.

Xususiylashtirishning ushbu turi Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya va G'arbiy Yevropaning boshqa mamlakatlari xosdir. Xususiylashtirishning ikkinchi turi 80-yillarning ohirlarida boshlangan va o'tgan asrning boshiga kelib, bu Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari (Polsha, Rossiya, Bolgariya va boshqalar) uchun xos bo'lgan. Bu ikki xususiylashtirish turlarining asosiy farq qiluvchi xususiyati uni amalga oshirish muddatidir.

1 - jadval: Xususiylashtirish turlarining qiyosiy xususiyatlari¹

Ko'rsatkich	Xususiylashtirishning birinchi bosqichi	Xususiylashtirishning ikkinchi bosqichi
Maqsad	Bozor iqtisodiyotini takomillashtirish	Bozor iqtisodiyotini shakllantirish va demokratik hokimiyat institutlarini mustahkamlash
Shart-sharoit	Yuqori darajada rivojlangan xususiy sektor va rivojlangan kapital bozori	Bozordagi davlatning monopol mavqeyi va aholida naqd pul yo'qligi
Shakli	Davlat mulkini qaytarib olish asosida topshirish	Bepul, imtiyozli vaucher tizimi
Sotish usuli	Mehnat jamoalariga kichik imtiyozlarni taqdim etgan holda korxonalarni bozor narxida sotish	Mehnat jamoalariga katta foya keltiradigan korxonalarini balans qiymati bo'yicha sotish
Masshtab	Xususiylashtirish ba'zi korxonalarni qamrab oladi	Iqtisodiyotning barcha sohalaridagi korxonalarni qamrab olgan xususiylashtirish katta miyosga o'tdi
Muddati	Xususiylashtirish bosqichma-bosqich va uzoq vaqt davomida amalga oshirildi	Xususiylashtirish juda qisqa vaqt ichida amalga oshirildi
Asosiy davlatlar	Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya va G'arbiy Yevropaning boshqa mamlakatlari	Rossiya, Bolgariya, Polsha va Sharqiy va Markaziy Yevropaning boshqa mamlakatlari

1 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.




Davlat korxonalarini xususiy lashtirishda institutsional qo'shilish, davlat korxonalarini xususiy lashtirishga tayyorgarlik va qayta tiklanish masalalarini aniqlashtirishni talab qiladi^[7].

Davlatning aksiyadorlik jamiyatlari ustav kapitalida tasischi sifatida ishtirokini va yillar kesimida aksiyadorlik kapitalining o'sishi va unda davlat ulushining o'zgarishlarini tahlil qiladigan bo'lsak. Aksiyadorlik kapitalinig yaxshi o'sish so'ratlariga yega ekanligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi, eng yuqori o'sish ko'rsatkichi 2016-yilda qayd etilgan bo'lib 2015-yilda 16 472,85 mlrd so'mga teng bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining kapitalizatsiya qiymati 2016-yil so'ngida 30 463,50 mlrd so'mga yetadi yoki 184,93 % o'sadi. O'z o'rnida ushbu ko'rsatkichning yuqori suratlar bilan o'sishida davlat aktivlarining oshib borishi katta ta'sirga yega. Birgina 2016-yil mobaynida aksiyadorlik kapitali 13 990,65 mlrd so'mga oshgan bo'lsa 11 975,2 mlrd so'mi aynan davlat ulushi hisobiga oshganligini ta'kidlab o'tish joiz.

2 - jadval: O'zbekiston Respublikasida Aksiyadorlik kapitali va unda davlat ulushining o'zgarish dinamikasi²

Yillar	Aksiyadorlik kapitali Hajmi (mlrd. so'm)	Aksiyadorlik kapitali o'zgarishi (mlrd. so'm)	Aksiyadorlik kapitali o'zgarishi (foizda)	Davlat ulushi hajmi (mlrd. so'm)	Davlat ulushi hajmi o'zgarishi (mlrd. so'm)	Davlat ulushi hajmi o'zgarishi (foizda)	Aksiyadorlik kapitalida davlat ulushi salmog'i o'zgarishi (foizda)
2013	10 249,37	1 137,89	112,49	5 670,23	-375,31	93,79	55,32
2014	12 725,58	2 476,21	124,16	7 133,35	1 463,12	125,8	56,06
2015	16 472,85	3 747,27	129,45	9 855,27	2 721,92	138,16	59,83
2016	30 463,50	13 990,65	184,93	21 830,47	11 975,20	221,51	71,66
2017	48 631,73	18 168,23	159,64	38 039,89	16 209,42	174,25	78,22
2018	59 439,42	10 807,69	122,22	47 371,80	9 331,91	124,53	79,7
2019	99 209,77	39 770,35	166,9	74 559,2	27 187,4	157,39	75,16
2020	149 502,26	50 292,49	150,69	127 601,00	53 041,80	171,14	85,35
2021	153 047,90	3 545,64	102,37	125 322,10	-2 278,90	98,21	81,88
2022	166 762,50	13 714,60	108,96	134 575,40	9 253,30	107,38	80,70

Aksiyadorlik kapitali va davlat ulushi tahlilini chuqurroq o'rganadigan bo'lsak 2013-yildan 2022-yilgacha bo'lgan muddat mobaynida davlat ulushining o'sish ko'rsatkichlari jami aksiyadorlik kapitali o'sish ko'rsatkichlaridan yuqori bo'lganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Eng yuqori o'sish ko'rsatkichi 2016-yilda qayd etilgan bo'lib o'tgan yilgiga nisbatan davlat aktivlari 221,51 % ga o'sgan. Eng past ko'rsatkich esa 2013-yilga to'g'ri kelib 93,79 % ni tashkil qilgan. Aksiyadorlik kapitali va davlat ulushining o'sish ko'rsatkichlari ikki yil muddat mobaynida qariyb yaqin ko'rsatkichlarni qayd etgan bular 2014-yil va 2018-yillardir. Umuman tahlil natijasida 2013-yildan, 2018-yilgacha davlat ulushi aksiyadorlik kapitalida to'xtovsiz o'sishga yereshib kelayotganligini ko'rishimiz mumkun.




1 - rasmi: Mamlakatimizda aksiyadorlik kapitali o'zgarishi holati³

2 www.deponet.uz – Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

3 www.deponet.uz – Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi



Aksiyadorlik kapitalining bunday katta ko'lamda davlat tassarufida qolishi samarali korporativ boshqaruvni amalga oshirish imkonini bermaydi. Fikrimiz isboti sifatida "Bugungi kunda bank tizimidagi eng asosiy muammo – ular kapitalining asosiy qismi, ya'ni, 83 foizi davlatga tegishli ekanidir. Bu, o'z navbatida, bank sektorida sog'lom raqobatga to'siq bo'lib, xizmat ko'rsatish sifatiga salbiy ta'sir qilmoqda" deb ta'kidlagan prezidentimiz.



2 - r a s m: Mamlakatimizda aksiyadorlik kapitali tarkibi o'zgarishi⁴

Mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlarida davlat ishtirokini ikki xil usulda ko'rishimiz mumkun, davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatları va xo'jalik boshqaruvi organları ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatları shaklida.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda O'zbekistonda xususiylashtirish hamda birlamchi va ikkilamchi ommaviy taklifni (IPO/SPO) amalga oshirish tizimi xalqaro standartlarga to'la javob bera olmasligi va uni takomillashtirish zarurati mavjud bo'lib oqibatda so'ngi 5 yil davomida respublikada atigi 4 ta IPO/SPO o'tkazilgan. Rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasini o'rgangan holda tajriba (eksperiment) tariqasida alohida shartlar asosida aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarini birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO) ommaviy taklif etishni amalga oshirish mamlakatimizdaagi davlat aktivlarini xususiylashtirish jarayoniga investorlarni jalb qilishni jadallashtirishda muhim amaliy qadam bo'ladji.

Qamrovni kengaytirish va O'zbekistonda xususiy lashtirish jarayonida yaratilgan AJ aksiyalar bozorida portfelli investorlar infratuzilmasi ta'minotida sifatni oshirish maqsadida muallif tomonidan quyidagilar taklif etiladi:

- investitsion ehtiyojlar tarkibidan kelib chiqgan holda barcha turdag'i portfelli investorlarga foydalanish imkonini beruvchi O'zbekiston Respublikasida emissiya amalga oshirgan emitentlar va qimmatli qog'ozlarning yagona ma'lumotlar banki bazasini yaratish;
 - tashkillashtirilmagan korporativ qimmatli qog'ozlar bozorida hisoblarni yuritish bo'yicha Respublikada kuchli umum davlat hisob-kliring tizimini yaratish masalasi yechimini tezlashtirish;
 - fond bozorining asosiy infratuzilma bo'g'inlari bo'lgan texnologik va axborotlarni bog'lash – "Toshkent" Respublika fond birjasi, Markaziy depozitariy, hisob-kliring tizimlarini umumlashtirish orqali, portfelli investorlarga ishonchlik va yetarli darajadagi kafolatga ega bo'lgan jarayonda yaratilgan AJ qimmatli qog'ozlar operatsiyasi siklini to'liq qayta ishlashini ta'minlab berish;

4 www.deponet.uz – Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi rasmiy vebsayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi



- xususiyashtirish jarayonida yaratilgan O'zbekiston AJ qimmatli qog'ozlari bilan operatsiyalar amalga oshirishda davlat tomonidan qat'iy va samarali boshqaruvni o'rnatish, shu bilan birga ularni hisobi va saqlanishini barcha QQB (Qimmatli qog'ozlar bozori)ning bo'lmlarida ta'minlash;
- birja listingiga 500 mln so'mdan kam bo'limgan ustav fondiga ega aksiyadorlik jamiyatlarini qo'shish. Shu bilan birga birja listingiga kirgan aksiyadorlik jamiyatları fond birjasi orqali qo'shimcha emissiya ha-jmidan 25 %dan kam bo'limgan birlamchi aksiyalar kiritilishini ko'rib chiqish taklif etildi.

Yuqorida sanab o'tilgan takliflarni amalga oshirish O'zbekistonda xususiyashtirish jarayonida yaratilgan aksiya bozoridagi xorijiy va mahalliy investrotlar uchun yaratilgan infratuzilma sifatini sezilarli oshishiga ta'sir ko'rsatadi, bu esa butun O'zbekistonning QQBlarida investitsion jozibadorligini oshishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20 dekabrdagi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.
2. Андрефф В. Российская приватизация: подходы и последствия. Вопросыэкономики № 6, 2004; Россия – 2015 / Под ред. акад. Л.И. Абалкина. М.: ММВБ, 2000; СажинаМ.А. Научные основы экономической политики государства: Учебн. пособие. М.: НОРМА, 2001; идр.
3. Savas, ES 1987. Приватизация: ключ к лучшему правительству . Чатем, штат Нью-Джерси: Чатем Хаус.
4. Бердиев Р.Б. Роль приватизации в привлечении иностранных инвестиций (на материалах Республики Таджикистан): дис. – Таджикский государственный аграрный университет, 2006. – С. 135.
5. Mikhail Khamidulin, Dilfuza Rakhimova, Shakhlo Abdullaeva, Muyassarhon Ganieva, and Bahramjon Mamatov. Successful privatization of state property: factors and their impact on efficiency.
6. Elmirzayev Samariddin Eshkuvatovich, Mamatov Bahromjon Shavkat o'g'li. Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotlarini samarali tashkil etish masalalari. Moliya va Bank ishi Jurnali4(2022), 105-110
7. Lavigne, Marie (1999) TheEconomicsofTransition. FromSocialistEconomytoMarketEconomy, Secondedition, Palgrave: 162-202.
8. www.deponet.uz – Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi rasmiy vebssayti

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.